

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova**

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida ..... 6

**A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni ..... 9

**A.Y.Toyirov**

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni ..... 16

---

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

**G.T.Kabulniyazova**

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi ..... 27

**X.N.Xolmirzaev**

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

**S.S.Evato**

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

**I.A.Asatulloev**

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

**B.X.Tolipov**

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari ..... 46

**Sh.Q.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi ..... 50

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

**L.K.Axatov**

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

**J.A.Mamanov**

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari ..... 63

**I.I.Umrzakov**

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

**Sh.A.Ismailov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari .... 74

**R.S.Raupova**

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni ..... 78

**M.A.Rahmonova**

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni ..... 84

**D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev**

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

**B.B.Dehqonov**

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati ..... 96

**A.Z.Sharipov**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

**L.B.Ikromova**

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

**A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov**

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati ..... 111



**ISLOM QADRIYATLARIDA SHAXS MA'NAVIYATI HAQIDAGI QARASHLARNING  
GUMANISTIK MOHIYATI**

**ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ СУТЬ ВЗГЛЯДОВ НА ЛИЧНУЮ ДУХОВНОСТЬ В ИСЛАМСКИХ  
ЦЕННОСТЯХ**

**THE HUMANISTIC ESSENCE OF VIEWS ON PERSONAL SPIRITUALITY IN ISLAMIC  
VALUES**

**Amonlayev Abdurasul Xakimovich<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Sultonov Muhammad Yoqub o'g'li<sup>2</sup>** 

<sup>2</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada shaxs ma'naviyati masalasi turli dinlar, xususan islom ta'lomitida ham muhim o'ringa ega ekanligi hamda mustaqillik tufayli uni islom ta'lomit va uning qadriyatlari nuqtai-nazaridan o'rganish muammoning dolzarbligini saqlab kelmoqdaligi tahlil etilgan. Islom dinida "ilm" haqidagi tushuncha keng ma'noga ega. Unda ilm haqida gap borar ekan, ilm qadriyat sifatida ta'riflanar ekan, faqat diniy qarashlar, diniy bilim nazarda tutilayotgani yo'q. Bunda ilm keng ma'noda insonning butun ma'naviyati, hayotga, yashashga munosabat darajasini belgilovchi omil sifatida qaralmoqdaligi tahlil etilgan.*

**Аннотация**

*В статье анализируется, что вопрос духовности личности играет важную роль в учениях различных религий, в частности ислама, и что в связи с обретением независимости его изучение с позиции исламского учения и его ценностей остается актуальным. В исламе понятие «знание» имеет широкое значение. Когда речь идет о науке, когда науку определяют как ценность, это относится не только к религиозным взглядам и религиозным знаниям. Анализируется, что знания в широком смысле рассматриваются как фактор, определяющий уровень всей духовности человека, его отношение к жизни и проживанию.*

**Abstract**

*The article analyzes the fact that the issue of personal spirituality plays an important role in various religions, in particular in Islamic teachings, and that due to independence, studying it from the perspective of Islamic teachings and its values remains relevant. In Islam, the concept of "knowledge" has a broad meaning. When it comes to knowledge, knowledge is defined as a value, and not only religious views and religious knowledge are meant. It is analyzed that knowledge is considered in a broad sense as a factor that determines the level of a person's entire spirituality, attitude to life, and living.*

**Kalit so'zlar:** Shaxs ma'naviyati, Islom ta'lomi, ilm va ilmli shaxslar, ruhiy ehtiyoji, imon, sura, hadis, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezzulik, dinu diyonat, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik.

**Ключевые слова:** Личная духовность, исламское учение, знания и ученые люди, духовные потребности, вера, суры, хадисы, духовное очищение, добродетель и добродетель, религия и вера, справедливость, патриотизм, гуманность.

**Key words:** Personal spirituality, Islamic teachings, knowledge and learned individuals, spiritual needs, faith, surahs, hadiths, spiritual purification, goodness and virtue, religion and faith, justice, patriotism, humanity.

**KIRISH**

Mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirish jarayonida shaxs ma'naviyatini o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir. Zero, shaxsning jamiyatga va aksincha, jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabati turli-fan sohalariga tegishli bo'lib, unda turli ta'lomitlar va qarashlar mavjudligini hisobga olgan holda ular o'tasida umumiy va farqli jihatlarning mavjudligini ta'kidlash lozim.

Shaxs ma'naviyati masalasi turli dinlar, xususan islom ta'lomitida ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Mustaqillik tufayli uni islom ta'lomit va uning qadriyatlari nuqtai-nazaridan o'rganish

## FALSAFA

muammoning dolzarbligini saqlab kelmoqda. "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash xar birimizning sharaflı burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi"[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Insoniy fazilatlarning qaror topish jarayoni bu – ma'naviyat sarhadlaridan o'tuvchi bepoyon kenglikdir. Boshqacha aytganda, diniy-ma'rifiy jarayonlarning ta'sirchan kuchiga ishonch va ishtiyoqning har bir fuqaro va shaxs ruhiyatiga singishi ma'naviyatdan boshlanadi. Zero, ajdodlarimiz maqsad naqadar yuksak bo'lmasin, ko'ngilda shunga yarasha ishtiyoq bo'lmasa, murod hosil bo'lmosi mahol ekanligini mudom ta'kidlab kelganlar.

Har qanday maqsadning amali ko'ngildan boshlanadi. Shu bois ishtiyoq bilan qilinmagan ishning samarasini ham bo'lmaydi. Har narsaga ijobji va ijodiy bilan qaray olish uchun kishining qalbida imon, shuurida ilm va ixlos barq urib turishi kerak. Bu fazilatlar uning irodasini ham shakllantiradi.

Inson har qachon, har qanday sharoitda – xursandlikda yoki qayg'uli damlarda, g'azabda yoki yaxshi kayfiyat kezlarida – o'zini tuta bilishi, xotirjamligini, sovuqqonligini yo'qotmasligi, sabr-u toqat bilan temir irodali, ruhan va axloqan mustahkamligini namoyish etishi lozim.

Alloh taolo "Baqara" surasining 204-oyatida aytadi: "Odamlar orasida shunday kimsalar borki, uning gapirgan gapi, hayoti dunyoda Sizga qiziq tuyuladi. Va o'zi (islomga) ashaddiy xusumati bo'lgan holida dilidagi "iymonga" Allohni guvoh keltiradi".

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xalqimiz orasida shunday kishilar ko'PKI, ularning yurish-turishi, muomala madaniyati, gapso'zi atrofdagilarga donolik va olijanoblik nuriday ta'sir qiladi. Ular bilan muloqot – jonning rohati, ibrat timsolidir. Ammo, afsuski, o'zlarining xulqu atvori bilan qiliq-qilmishi bilan boshqalarning g'ashiga tegadigan, nafrat uyg'otadigan odamlar ham bor.

Qur'oni Karimda yaxshilik va pokizalikning naqadar buyuk ne'mat ekanligi, birovga ozor bermaslik, til bilan dilni doimo bir tutish, nochorlarga zakot berish va ko'nglini ko'tarish chin insoniy fazilat ekanligi xususida juda ko'p eslatmalar mavjud. Bu jihatdan islom dini – buyuk qadriyat, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan benazir ibrat haqidagi xazinadir. Shuning uchun ham Yevropa olimlari Qur'oni dunyo madaniyatining eng nodir asari deb ta'riflaganlar.[2]

Islom dinida har bir kishining izzati, hurmati, demak fazilatli bo'lishi uning ilmiga, aql-u farosatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu xususda Muhammad payg'ambar o'z hadislarida shunday fikr bildiradi: "Har bir muslimonga talaba ilm qilish farzdir... Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshirokdir"[3].

Zero, Qur'oni Karimda kishilarni ilmli va bilimli bo'lishga da'vat etuvchi juda ko'p g'oyalar mavjud. Payg'ambarimiz Muhammad (SAV) ga nozil bo'lgan muqaddas Qur'oni Karimning eng bиринчи oyati "o'qi" degan so'z bilan boshlanadi. Allah taoloning bu amri faqatgina "o'qish" degan tushunchani bermaydi. Ko'pgina mufassirlar bu so'zni bilim yig' ma'novida talqin qiladilar.

Hadisi shariflarda ham ilm va olimlik xusiyatlari haqidagi insonlar o'rnak olsa arziyidigan misol va o'gitlar juda ko'p: "Oxiratda nabiyalar, olimlar va shahidlar shafoat qilish huquqiga ega bo'ladi", "Olimlarga ergashingiz. Zero, ular dunyoning mash'allari va oxiratning chiroqlaridir..." "Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmiga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan"[4]. Ilm insonni ana shunday yuksak ma'naviyat shoxsupasiga ko'taradiki, natijada ilm va ilmli shaxslar ma'naviyat manbayiga, timsoliga aylanadilar.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, islom dinida "ilm" haqidagi tushuncha keng ma'noga ega. Unda ilm haqida gap borar ekan, ilm qadriyat sifatida ta'riflanar ekan, faqat diniy qarashlar, diniy bilim nazardautilayotgani yo'q. Bunda ilm keng ma'noda insonning butun ma'naviyati, hayotga, yashashga munosabat darajasini belgilovchi omil sifatida qaralmoqda.

Ana shu ma'noda G'azzoliy yozadi: "Har kishining izzati va sharofati ilm birla va qudrat va quvvat birla va yo'jamoli va sifati bila bo'lur"[5].

Islomda ma'naviyat tushunchasi nainki ilm, xulqu odob, shuningdek, iymon bilan ham chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Iymonli odamning qalbi, fikri va niyati toza bo'ladi. Iymon shaxs ma'naviyati takomiliga yo'l ko'satadi, bu yo'lni yoritadi va maqsad mazmunini chuqurlashtiradi. Jaloliddin Rumi yomonni hatto namozdan ustun qo'yadi. U yozadiki, "Iymon namozdan ustundir. Chunki namoz kunda besh mahal, iymon esa hamma vaqt farzdir. Namoz uzrli sabab bilan qoldirilib, fursat bo'lishi bilan ado etilishi mumkin. Iymon uchun hech qanday uzrli sabab

## FALSAFA

---

bilan buzilib, keyinroq bajarish ruxsati yo'q. Namozsiz iymonning foydasi bo'ladi. Biroq iymonsiz namozning foydasi yo'q"<sup>[6]</sup>.

Ma'naviyat birinchi navbatda insonning ruhiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Tasavvur eting, inson kimgadir yaxshilik qilgisi keladi. Bu hol ayni paytda uning o'zi ham yaxshilikka, mehrga mushtoq ekanini bildiradi. Shu bois u yaxshilik qiladi-yu, buning evaziga o'ziga mehr-quvvat oladi, ruhiy ehtiyojini qondiradi. Shu ehtiyojni qondirish jarayonida insonning xayrli amallari, ezgu faoliyati shakllana boradi.

Vatanimiz hamisha aqlu hikmat, ilmu ma'rifat sohiblarining yurti bo'lib kelgan. Ushbu muqaddas zamindan "unib chiqqan" allomalar zakovatining mahsuli nafaqat musulmon tamadduni, balki umumbashariy sivilizatsiyaning ko'rgi bo'lib, ular amalga oshirgan buyuk kashfiyotlar jahon ahlining yuksak ehtiromiga sazovor bo'lib kelmoqda. Muhimi shundaki, ushbu yutuqlar islam qadriyatlari va islam ma'rifatini nafaqat yurtimiz uchun, balki umumbashariyat uchun ma'naviyatni qaror toptirish maktabi darajasiga ko'tardi.

Zero, o'tmishda ham, bugungi kunda ham xorijiy dunyo, ayniqsa, musulmon olami Movarounnahr madaniyati va fanidan bahramand bo'lgan hamda ta'sirlanib kelgan. Bu hol ayniqsa "o'rta asrlar" degan sifat bilan tarixga kirgan davr uchun xos bo'lgan. Ayni shu davrda bizning yurtimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Imom ad-Darimi kabi peshvo muhaddislar, Imom al-Moturidiy, Abulmu'in an-Nasafiy kabi mutakallim-ilohiyotchilar, Burhonuddin al-Marg'iloni kabi faqihlar etishib chiqdilarki, ular yaratgan o'limas asarlar musulmon dunyosi hayotini tashkil etishning dasturilamaliga aylandi.

Islam ilmi va qadriyatlari inson ma'naviyati kamolga etkazishdagi o'rni va ta'siri katta ekanligini allomalarimiz o'z asarlarida alohida ta'kidlab o'tganlar. Bu xususda to'xtalar ekan, birinchi prezident I.Karimov: "Xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Ollo marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi..."<sup>[7]</sup> deb ta'kidlagan edi.

Garchi musulmonlar yunon, eron, hind madaniyatları durdonalaridan foydalangan bo'lsalar-da, lekin islam madaniyati tushunchasi Qur'oni Karim va hadisi sharif bilan hamisha chambarchas bog'liq bo'lganligining o'zi fikrimizga dalildir. Ulug' muhaddislar hadis ilmini Payg'ambarimiz Muhammad SAVning ibratlari hayotini o'rganishdan boshlaganligida ham katta ma'no bor.

Binobarin, Rasululloh siyratini o'rganish hadislarning diniy va dunyoviy hayotdagagi roli beqiyos katta ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning "Al-jomi' as-sahih" (ishonchli hadislar) to'plami "Al-Adab al-mufrad" to'plamlariga kiritilgan hadislar aynan ma'naviyat masalasidagi islam ilmi manbai ekanligini ta'kidlash zarur.

To'plamga kiritilgan hadislarning mazmunini jiddiy o'ylab ko'radigan bo'lsak, ular eng oliy qadriyatlarni kasb etishga chaqirilgan da'vat ekanligiga amin bo'lamic.

Ana shu qadriyatlar zamirida inson axloqiy fazilatlari takomiliga xizmat qiluvchi ibrat manbai mujassamdir.

Binobarin, hadislar tijorat ahlini halol bo'lishga chaqiradi, chunki Payg'ambarimiz halol savdo qiluvchilar Qiyomat kuni eng mo'min odamlar sirasiga kirishini uqtiradi.

Hadislar ishchilarni o'z yumushlarini oliy darajada bajarishga chaqiradi, zero, «Alloh boshlagan ishini yaxshi qilganlarni yaxshi ko'radi».

Hadislar hunarmandlarni, ayniqsa, ular oldindan muayyan mablag'ni olib qo'ygan bo'lsa, o'z ishlarini sidqidildan bajarishiga da'vat etadi, chunki "Alloh Qiyomat kuni oldindan mablag' olib qo'ygan odaman o'z ishini bajardimi yoki yo'qmi, albatta so'raydi".

Hadislar ota-onas, aka-ukalar va aka-singillarni oiladagi o'z burchlarini jamiyatdagagi kabi mukammal ado etishga chaqiradi, chunki "jamiyatning har bir a'zosi o'z zimmasidagi majburiyatlar uchun mas'uldir".

Hadislar odamlarni rostgo'y bo'lishga chaqiradi, ilohiyot haqiqati shundan iboratki, "doimo rostgo'y bo'lgan odamgina Alloh taolo tomonidan mo'minlar qatoriga kiritiladi". Hadislar odamlarni mehribonlikka chaqiradi: "Yer yuzidagilarga mehr-shafqat ko'rsating, samoviy va aroziy olamlar Parvardigori ham sizlarga shafqat qiladi" [8]. Qur'oni Karim va Sunani sharif bulardan boshqa ezgu qadriyatlarga ham da'vat etadiki, turli asr olimlari ularni sharhlashga juda ko'p kuch sarflanganlar.

Ularning mehnati samarasi o'laroq hadislarning inson fitrati (tabiat) fe'l-atvorini o'nglashga xizmat qiluvchi ibratli bayonlar berilganki, u bugungi kun uchun ham g'oyat qimmatlidir. Bozor munosabatlari asosida mamlakatimizda rivojlanish jarayoni ketayotgan ekan, kishilararo iqtisodiy ijtimoiy, ma'nnaviy munosabatlarda ana shu hadis talablariga rioya etish har bir ongli insonni o'zi umrguzaronlik qilayotgan jamiyat va xalq oldida insoniy burch hamda mas'uliyatini teran anglashga olib keladi.

Hadislarda mol-dunyoga hirs qo'yishning inson uchun omad emas, ofat keltiruvchi illat ekanligi haqidagi ibratli misollar ham shaxs axloqiy fazilatlarining kamol topishiga xizmat qiladi. Hadislarda qayd etilishicha, "bandaning mol-u dunyoga qo'ygan hirsni ikki och bo'rining qo'y podasiga qilgan tajovuzidan ko'ra zararliroqdir. Zero, bu bilan u o'z dini va iymoniga putur etkazadi"[9]. Islomda iymonga putur etkazish eng katta illatdir. Zero, iymon basalomatligi yaxshi amallar bilan mustahkamlanadi.

Bu tariqatning ikki tomoni bor: Birinchisi – axloqiy jihat: u zamindan, xalqdan, mehnatdan uzilib qolmaslikka, ma'rifatga erishishga va jaholatga, zulmga qarshi kurashishga, biron-bir kasbning boshini tutishga, o'zgalarga axloqiy namuna bo'lib yashashga chaqiradi. Ikkinchisi – ilohiy jihat: u axloqiy qismatga da'vat etadi. Bu tariqatning yana "Xilvatda – shuhrat, shuhratda ofat" degan aqidasi ham diqqatga sazovor. Xilvatda faqat o'zini o'ylab, ertadan kechgacha ibodat qilishda ham g'araz bor: bu, birinchidan, kishining jannatdan eng avvalo o'zi o'ren olishi uchun tirishib-tirmashishi bo'lsa, ikkinchidan, xudoga xudbinlik orqali yaxshi ko'rinish va, uchinchidan, odamlar ko'ziga o'zini zo'r qilib ko'rsatish, ya'ni shuhrat orttirishdir. Shuningdek, bu tariqat avvalo ziylolilarga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Uning "Agar mamlakat xarob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, haqiqat ahli nazdida bu darveshlarning – ziylolilarning, ilm ahlining gunohidir", "Hech kimdan xafa bo'lma va hech kimni xafa qilma", "O'lilik sherdan tirik mushuk afzal" singari hikmatlar ham hech qachon o'z kuchini yo'qotmaydi[10].

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom dini manbalarini tadqiq va tahlil qilish shundan dalolat beradiki, Qur'oni Karim, hadisi sharif, buyuk muhaddislarning bizga qoldirgan manbalari, ma'rifat ahlining o'gitlari shaxs ma'naviyati takomilida bebaho asos, ma'nnaviy xazinadir. Islom ilohiyoti va ma'rifatida shaxs ma'naviyatiga munosabat ko'proq shaxsnинг axloqiy dunyoqarashi hamda dinu diyonat, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarida alohida ko'zga tashlanadi. Xususan, tasavvuf ta'limotining ko'zga ko'rigan namoyandasи, Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband merosidan bunga ko'plab asoslar keltirish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo'limizni katiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 30b
- Xo'jaeva A., Qobiljonova G., Qo'ziboeva M., Oxunova M. Islom va inson kamoloti. Istiqlol yillari: Milliy-diniy qadriyatlarning xalqqa qaytishi (Andijon). – Toshkent, 2001. – B. 62-63
- Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 93.
- Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 61.
- G'azzoliy. Kimiyoi saodat. – Toshkent: Kamalak, 1995. – B. 39.
- Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichingdag'i ichingdadur. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – B. 34-35
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 36-37.
- Sattiev I.M. Imom Al-Buxoriyning "Al-Jomi' As-Sahih" i-musulmonlar hayotining yo'lchi yulduzi. Zamonamiz ulamolari. – Toshkent, 2001. – B. 52-53.
- Axloq-odobga oid hadis namunalari. – Toshkent, 1990. – B. 198
- Dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam. Akademik I.Sulton bilan A.Sher suhbatii // Sog'lom avlod uchun. – Toshkent, 1996. – № 1.